**TOSHKENTDA BO‘LIB O‘TGAN O‘ZBEKISTON-AMERIKA BIZNES FORUMI: STRATEGIK IQTISODIY HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI**

Joriy yilning 9-iyun kuni poytaxtimizda joylashgan CAEx ko‘rgazmalar saroyida Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida O‘zbekiston-Amerika biznes forumi o‘tkazildi.

Davomi → 3-betda



Международное сотрудничество

**ПРЕЗИДЕНТ УЗБЕКИСТАНА ОТМЕТИЛ ВАЖНОСТЬ РАСШИРЕНИЯ ВЗАИМОВЫГОДНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА С РОССИЕЙ В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИКИ**

Продолжение → 14 стр.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ГАЗЕТА / IQTISODIY GAZETA

# BIZNES DAILY BIRJA

#47 (3241) 12.06.2025

GAZETA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI KO‘MAGI BILAN CHOP ETILADI

WWW.BUSINESSDAILY.UZ

# O‘zbekiston Prezidenti xorijiy hamkorlar bilan investitsiyaviy sheriklikning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 10-iyun kuni poytaxtimizdagi Xalqaro kongress markazida to‘rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi majlisida ishtirok etdi.

Tadbirda Bolgariya Prezidenti Rumen Radev, Slovakiya Bosh vaziri Robert Fitso, Qozog‘iston Bosh vaziri Oljas Bektenov, Qirg‘iziston Hukumati raisi Adilbek Kasimaliyev, Tojikiston Bosh vaziri Qohir Rasulzoda, Ozarbayjon Bosh vaziri Ali Asadov, Rossiya Hukumati raisi o‘rinbosari Aleksandr Novak, Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi raisi o‘rinbosari Nokerguli Ataguliyev hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso va Yangi taraqqiyot banki prezidenti Dilma Rusef ham qatnashdi.

Umuman, forumga 100 dan ziyod mamlakatdan 7,5 mingdan ortiq delegat, jumladan, 3 mingga yaqin xorijiy mehmon tashrif buyurdi. Bu yilgi tadbir yangi, kengaytirilgan shaklda o‘tkazilmoqda. Uning doirasida ilk bor O‘zbekiston kompaniyalarining loyihalari va qo‘shma tashabbuslari namoyish etilayotgan ixtisoslashgan ko‘rgazma tashkil etildi.

Davlatimiz rahbari forumdagi nutqini dunyodagi bugungi vaziyatning qisqacha tahlilidan boshladi. Bugungi kunda geosiyosiy jarayonlar shiddat bilan o‘zgarib, global xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga tahdidlar kuchayib borayotgani ta’kidlandi.

Iqtisodiy inqirozning keskinlashuvi va moliyaviy resurslar taqchilligi natijasida jahon yalpi ichki mahsulotining o‘sish sur’atlari ketma-ket uchinchi yil pasaymoqda.

O‘zbekiston rahbari mintaqaviy mojarolar va muammolarni faqat diplomatik vositalar bilan, xalqaro huquq normalari va prinsiplari asosida, BMT rezolyutsiyalariga muvofiq hal etish muhimligini ta’kidladi.

**- Men hozir ta’kidlab o‘tgan muammolar bo‘yicha barcha sherik davlatlarimizni ochiq va keng ko‘lamli xalqaro hamkorlikka chaqiramiz. Chunki forumning asosiy mavzusi bo‘lgan investitsiyalar – faqat iqtisodiy taraqqiyotning emas, balki tinchlik va barqarorlikning kafolatidir,** - dedi davlatimiz rahbari.

O‘zbekiston yetakchisi nafaqat daromad keltiradigan, balki inson qadrini ulug‘lash, uning hayotiy manfaatlari va jamiyat taraqqiyotini ta’minlash uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladigan investitsiya muhitini yaratishga chaqirdi.

Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash borasidagi yutuqlariga alohida to‘xtalib o‘tildi. So‘nggi 8 yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti ikki barobar ko‘paydi. Bu ko‘rsatkichni 2030-yilga borib 200 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. 2024-yilda investitsiyalar hajmi 35 milliard dollarga, eksport esa 27 milliard dollarga yetgan.

So‘nggi 5 yil ichida O‘zbekiston Iqtisodiy erkinlik indeksida 48 pog‘onaga, Garvardning Iqtisodiyot murakkabligi indeksida 28 pog‘onaga ko‘tarildi.

O‘tgan oyda nufuzli “S&P” agentligi O‘zbekistonning suveren reytingi bo‘yicha prognozini "barqaror"dan "ijobiy"ga ko‘tardi.

Bugun jahon iqtisodiyoti yangi o‘zgarishlar ostonasida turganini ta’kidlar ekan, O‘zbekiston Prezidenti to‘rtta muhim yo‘nalish bo‘yicha hamkorlik qilish muhimligini ko‘rsatib o‘tdi.

Birinchisi - "yashil" iqtisodiyot modeliga o‘tish.

**- Biz iqtisodiyotni barqaror energiya resurslari bilan ta’minlash uchun aynan “yashil” energetikani rivojlantirishga qattiq bel bog‘laganmiz,** - dedi mamlakatimiz yetakchisi.

Keyingi yillarda bu sohaga qariyb 6 milliard dollar to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 59 milliarddan 82 milliard kilovatt soatga oshdi. Kelgusi 5 yilda bu ko‘rsatkich 120 milliard kilovatt-soatdan oshib, "yashil" energiya ulushi 54 foizga yetadi.

Elektr tarmoqlarini yangilashga ham 4 milliard dollar jalb qilinadi. Joriy yilda Samarqand shahrida, kelgusi yilda yana 8 ta hududda elektr tarmoqlari xususiy sheriklikka beriladi.

Birinchi marta "yashil sertifikatlar" va uglerod birliklari savdosini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan. O‘zbekiston global uglerod bozorlariga qo‘shiladi, "Yashil O‘zbekiston" iqlim investitsiyalari platformasi yaratiladi.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt iqtisodiyotning yangi "drayveri"ga aylanmoqda.

**- Mamlakatimizda shu yilning o‘zida IT eksporti 1 milliard dollarga yetadi. 2030-yilga borib, bu ko‘rsatkichni 5 karra oshirish uchun salohiyatimiz ham, imkoniyatimiz ham yetarli,** - dedi davlatimiz rahbari.

O‘zbekistonning bu boradagi yutuqlari xalqaro miqyosda e’tirof etilmoqda. Xususan, Xalqaro sun’iy intellektga tayyorlik indeksida mamlakatimiz bir yilda 17 pog‘onaga ko‘tarildi.

Kelgusi yilda "Bulutli texnologiyalar" milliy platformasi ishga tushiriladi. Yaqin 5 yilda xususiy investorlar bilan birga 500 megavattdan ziyod quvvatli 20 ta data-markaz barpo etiladi.

Boy tariximiz, qadriyatlarimiz va yangi kreativ g‘oyalarni mujassam etadigan milliy sun’iy intellekt modelini ishlab chiqish rejalashtirilgan. Ushbu tizim samaradorligini ta’minlash maqsadida "Bir million sun’iy intellekt yetakchilari" loyihasi boshlandi.

Davlatimiz rahbari birgalikdagi sa’y-harakatlar bilan O‘zbekiston nufuzli IT va fintex xabiga aylanishiga ishonch bildirdi.

Uchinchidan, moliyaviy tizim va texnologiyalar tubdan o‘zgarmoqda.

**- Biz yaqinda Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon banki bilan birga O‘zbekiston moliya sektorini ilk bor kompleks baholashdan o‘tkazdik. Ular bank, moliya, sug‘urta, kapital bozoridagi islohotlarimizni to‘liq qo‘llab-quvvatladi,** - dedi davlatimiz rahbari.

Davomi → 2-betda




Jarayon

**YEI va Markaziy Osiyo hamkorligi hamda sanoatda yangi salohiyat muhokama qilindi**

→ 12-betda



Международное сотрудничество

**Узбекистан сотрудничает с «Дом.РФ» для защиты дольщиков от мошенничества**

→ 14 стр.



ОТДЕЛ РЕКЛАМЫ

REKLAMA VA E’LONLAR BO’LIMI

+998 (99) 353-55-54

telegram BIZNES DAILY BIRJA

Boshlanishi → 1-betda

# O‘zbekiston Prezidenti xorijiy hamkorlar bilan investitsiyaviy sheriklikning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi

Bu sohalarni keyingi bosqichga olib chiqish uchun Moliyaviy barqarorlik kengashi tuziladi, Markaziy bank huzurida kiberxavfsizlik va moliyaviy texnologiyalar platformalari ishga tushiriladi.

Sug‘urta tizimida islohotlar boshlandi, Milliy qayta sug‘urtalash kompaniyasi va Global qayta sug‘urtalash raqamli platformasi tashkil etildi.

Startaplar uchun muqobil moliyaviy vosita - venchurlar jadal rivojlanmoqda. Masalan, o‘tgan yili ikkita milliy startap kompaniyasining qiymati ilk bor 1 milliard dollardan oshdi.

Bunday kompaniyalarni ko‘paytirish maqsadida "Muqobil investitsiya jamg‘armalari to‘g‘risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Kelgusi 5 yilda venchur va boshqa muqobil investitsiyalar hajmi 1 milliard dollarga yetkaziladi.

Yana bir yo‘nalish - "To‘rtinchi sanoat inqilobi" sharoitida texnologik minerallarga talab bir necha barobar ko‘paymoqda.

O‘zbekistonda volfram, molibden, magniy, litiy, grafit, vanadiy, titan va boshqa minerallarning katta zaxiralari aniqlangan. Yer osti boyliklarimizning umumiy salohiyati 3 trillion dollarga baholanmoqda.

**- Mintaqamizning minerallardan yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish**



**“xabi”ga aylanishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Bu borada Toshkent va Samarqand viloyatlarida “Kelajak metallari texnoparki”ni bunyod etmoqdamiz,** - dedi davlatimiz rahbari.

Shu bois geologiya-qidiruv ishlaridan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan to‘liq zanjirni yo‘lga qo‘ygan investorlarga 10 yil davomida renta solig‘ini qaytarib berish taklif qilindi.

O‘zbekiston Prezidenti o‘z nutqida "Yangi O‘zbekiston - investitsiyalar uchun katta imkoniyatlar mamlakati" tamoyilini amalda ro‘yobga chiqarishga alohida e’tibor qaratdi.

Birinchidan, O‘zbekiston kelgusi yilda Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishni maqsad qilgan. Bu borada o‘nlab qonunlar, yuzlab standartlar xalqaro talablarga moslashtirildi. Bu jarayon joriy yilda to‘liq yakunlanadi.

Ikkinchidan, xorijiy investorlar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida mahalliy kompaniyalar bilan bir xil sharoitlarni kafolatlaydigan "milliy rejim", davlat idoralari bilan o‘zaro hamkorlikda "yagona darcha" tamoyili joriy etiladi, investitsiya faoliyatini kafolatli himoya qilish tizimi yaratiladi.

Bunday chora-tadbirlar orqali 2030-yilga borib O‘zbekistonning kredit reytingini “investitsion” darajaga ko‘tarish rejalashtirilgan.

Uchinchidan, davlat kompaniyalarini xususiylashtirishda ularni mamlakat farovonligi o‘sishiga xizmat qiladigan yirik aktivlarga aylantirish yo‘li tanlandi.

18 ta yirik kompaniya va banklardagi qariyb 2 milliard dollarlik davlat ulushlarini birlashtirgan Milliy investitsiya jamg‘armasi tashkil etildi. Jamg‘armani boshqarishga nufuzli “Franklin Templeton” xalqaro kompaniyasi jalb qilingan. Kelgusi yilda fond aksiyalari paketini xalqaro IPOga chiqarish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, professional konsultantlar jalb qilinib, ikki yil ichida 29 ta yirik davlat kompaniyasi xususiylashtiriladi.

To‘rtinchidan, xususiy kapitalni jalb etgan holda transport va logistikani rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Masalan, Samarqand, Namangan, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlari davlat-xususiy sheriklik asosida salohiyatli investorlarga boshqaruvga berilgan.

Urganch aeroportini boshqarishga jahonning yetakchi "Inchxon" kompaniyasi jalb etildi. Kelgusi yilda Nukus, Termiz, Farg‘ona, Navoiy aeroportlari bo‘yicha tenderlar o‘tkaziladi.

Bundan tashqari, poytaxtimiz aholisi 5 milliondan oshishini inobatga olib, 2 million aholiga mo‘ljallangan Yangi Toshkent shahri barpo etiladi. Bu yerda aeroport, temir yo‘l va avtomobil transportini bog‘laydigan, yiliga 20 million yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatadigan multimodal xab quriladi.

Beshinchidan, Markaziy Osiyoda mutlaqo yangi hamkorlik muhiti shakllandi. So‘nggi 8 yilda qo‘shni davlatlar bilan tovar ayirboshlash hajmi 3,5 barobardan ziyodga o‘sib, qariyb 13 milliard dollarni tashkil etdi.

Yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. "Xitoy - Qirg‘iziston - O‘zbekiston" temir yo‘li qurilishi boshlandi, yirik energetika va infratuzilma loyihalarini tayyorlash ishlari olib borilmoqda.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston yetakchisi Markaziy Osiyoda "Investitsiya va savdo uchun yaxlit hudud" konsepsiyasini ilgari surishni taklif etdi.

**- Shu o‘rinda xalqaro tashkilotlarga murojaat qilmoqchiman: mintaqaviy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun yangi moliyaviy mexanizmlarni yo‘lga qo‘yish vaqti keldi. Birgalikda harakat qilsak, Markaziy Osiyoni tinchlik va taraqqiyot makoniga aylantiramiz,** - dedi Prezident.

So‘zining yakunida O‘zbekiston rahbari ishtirokchilar e’tiborini mamlakatimiz uchun investitsiyalar shunchaki moliyaviy resurs emas, balki texnologiyalar, bilimlar, malakali kadrlar, shuningdek, xalqaro ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiyalashuv ekaniga qaratdi.

**- O‘zbekiston mana shunday ezgu g‘oyalar bilan keladigan xorijiy investorlarga barcha sharoitlarni yaratib beradi, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi va buni kafolatlaydi,** - dedi mamlakatimiz yetakchisi.

Yalpi majlisda so‘zga chiqqanlar Yangi O‘zbekistondagi islohotlar natijalarini yuqori baholab, mamlakatimiz bilan ustuvor tarmoqlarda investitsiyaviy hamkorlikni yanada kengaytirish bo‘yicha o‘z taklif va tashabbuslarini bildirdi.

**Jamshid Axmatov, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi mutaxassisi.**

# 2025-yilning birinchi yarmi uchun YAIM o‘sishi 6,7 foiz darajasida prognoz qilinmoqda

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi joriy yilning birinchi yarim uchun O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi prognozini taqdim etdi.

Prognoz keng qamrovli ma’lumotlar, joriy iqtisodiy tendensiyalar va asosiy tarmoqlar rivojlanishini ko‘rsatuvchi yuqori tezlikdagi indikatorlar tahliliga asoslangan.

O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining (YAIM) joriy darajasi prognozi ilg‘or tahlil usullari va xalqaro tajribani o‘rganishga tayanilgan. Markaz iqtisodiy ko‘rsatkichlarni prognoz qilish uchun iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarga tez javob berish va kelajakdagi tendensiyalarni bashorat qilish imkonini beruvchi keng qamrovli ma’lumotlarni tahlil qilishga asoslangan noukasting usulidan foydalanadi.

Ma’lumotlar tahlili va joriy iqtisodiy tendensiyalarga to‘xtaladigan bo‘lsak. Joriy yilning birinchi yarmida O‘zbekiston iqtisodiyoti doimiy tashqi xavf-xatarlar fonida barqaror va muvozanatli o‘sishni namoyish etmoqda. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, yanvar-mart oylarida mamlakat YAIM 6,8 foizga o‘sdi.

Asosiy rivojlanish drayverlari sifatida xizmatlar sohasi, sanoat va qurilish sanoati qayd etildi. Bozor xizmatlari 12,6 foizga, qurilish ishlari hajmi 10,8 foizga, chakana savdo aylanmasi 9,5 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 6,5 foizga oshdi, aholining umumiy daromadlari esa 9,8 foizga o‘sdi.

Yanvar-aprel oylarida tashqi iqtisodiy faollikda ham o‘sish kuzatildi. Tashqi savdo aylanmasi 24,6 mlrd dollarga yetdi (o‘sish 16,3 foiz), eksport hajmi esa 35,1 foizga o‘sdi va 11,9 milliard dollarni tashkil etdi, import esa 2,9 foizga o‘sdi. Tashqi savdo balansining manfiy saldosi 846 mln dollargacha qisqardi (o‘tgan yilning shu davrida –3,6 mlrd. dollar bo‘lgan).

Joriy yilning aprel oyida markaz tomonidan baholangan Ishbilarmonlik faolligi indeksi (IFI) 1099 birlikni tashkil etdi, mart oyiga nisbatan 9,9 foizga hamda 2024- yilning aprel oyiga nisbatan 22,3 foizga oshgan.

2025-yilning birinchi yarmi uchun iqtisodiy o‘sish prognoziga qaraymiz. Joriy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar yuqori investitsion va tashqi savdo faolligini hisobga olgan holda, markaz joriy yilning birinchi yarmi yakunida O‘zbekistonda YAIM o‘sishini 6,7 foiz darajasida prognoz qilmoqda. Iqtisodiy o‘sishning prognoz qilingan diapazoni 6,5 foizdan 6,8 foizgachani tashkil etadi.

Joriy yilning birinchi yarmida O‘zbekistonda YAIMning haftalik o‘sishi ham prognoz qilinmoqda. O‘sishning asosiy manbalari bo‘lgan sanoat va xizmatlar sohasini kengaytirish, investitsiyalar hajmini oshirish, shu jumladan, joriy yilning yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 120 trln so‘mdan ziyodni tashkil etdi. Aholining real daromadlari va iste’mol talabining o‘sishi, shuningdek, infratuzilmani takomillashtirish va hududlararo integratsiyani rivojlantirish ushbu manbalar qatoriga kiradi. Qo‘shimcha ravishda, rasmiy choraklik ma’lumotlar e’lon qilinguniga qadar YAIM darajasini baholash va prognozlash maqsadida Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ilg‘or tahlil usullaridan foydalangan holda o‘rganishlarni olib bordi. Google'dagi qidiruv so‘rovlari ma’lumotlariga tayanilgan holda, joriy yilning yanvar-aprel oylarida biznes va sanoat yo‘nalishida (+4,1 foiz), xaridlar bo‘yicha (+7,6 foiz) hamda moliya sohasida (+3,7 foiz) qiziqishning ortishi kuzatildi. Bu esa bilvosita mamlakatda biznes va iste’molchilar faolligining ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Xalqaro baholashga to‘xtaladigan bo‘lsak. Aprel oyida yangilangan ma’lumotlarga ko‘ra, Osiyo taraqqiyot banki O‘zbekistonning 2025-yilda YAIM o‘sishini 6,6 foiz darajasida prognoz qilmoqda hamda sanoat va xizmatlar hissasini qayd etmoqda. Xalqaro valyuta jamg‘armasi real daromadlar va ichki talabning o‘sishini ta’kidlab, o‘z prognozini 5,9 foizga oshirdi. Shuningdek, Jahon banki iste’mol talabi, pul o‘tkazmalari va investitsiya faolligiga e’tibor qaratgan holda o‘sishni 5,9 foizda kutmoqda.

Shunday qilib, asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarning haftalik monitoringiga asoslangan markaz prognozi iqtisodiyotga ta’sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni hisobga oladi. Bu har choraklik rasmiy ma’lumotlar e’lon qilinishidan oldin YAIM dinamikasini erta baholash va iqtisodiy muhitdagi o‘zgarishlarga tezkor munosabat bildirish imkonini beradi.

# Toshkentda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston-Amerika biznes forumi: strategik iqtisodiy hamkorlikning yangi bosqichi

Joriy yilning 9-iyun kuni poytaxtimizda joylashgan CAEx ko‘rgazmalar saroyida Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida O‘zbekiston-Amerika biznes forumi o‘tkazildi.





Ushbu tadbir O‘zbekiston va AQSh o‘rtasidagi ikki tomonlama iqtisodiy munosabatlar tarixida muhim voqea bo‘ldi.

Biznes forum O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Amerika-O‘zbekiston Savdo palatasi (AUCC) hamkorligida tashkil etildi.

Tadbirni ochib berish uchun so‘zga chiqqan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari Jamshid Xodjayev yurtimizga keluvchi investorlarda tug‘iladigan “Nega aynan O‘zbekiston?” savoliga javob berdi:

Birinchidan, bizda investorlar huquqlari qonun bilan kafolatlangan. Yangi biznes subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish soddalashtirilgan. Yer maydonlari onlayn-auksion orqali taqdim etiladi. O‘zbekiston iqtisodiyoti so‘nggi yillarda deyarli ikki baravar o‘sdi. O‘tgan yilda o‘sish sur’ati 6.5% bo‘ldi. 6 milliard dollardan ortiq to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. “Uzbekistan 2030” strategiyasi doirasida biz YaIMni 200 milliard dollarga, investitsiyalarni 100 milliardga, eksportni esa 45 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilganmiz.

Ikkinchidan, barqaror iqtisodiy o‘sish ta’minlangan. Sanoat yillik o‘rtacha 8% ga o‘smoqda. Eksport hajmi ikki baravar ortgan. Markaziy Osiyoda 83 millionlik aholi bo‘lishi bilan birga, biz 300 millionlik keng bozorlar bilan erkin savdo rejimiga egamiz. Yevropa bozoriga GSP+ imtiyozlari orqali 6 200 dan ortiq mahsulotimizni eksport qilmoqdamiz. Eksport hajmi 27% ga o‘sgan.

Uchinchidan, malakali va yosh ishchi kuchi. Aholining 60 foizi 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlardan iborat. 62 ta yangi oliy ta’lim muassasasi ochilgan, ulardan 23 tasi – xalqaro universitetlar filiallari. Oliy ta’lim qamrovi 9% dan 42% gacha oshgan.

To‘rtinchidan, biz tabiiy resurslarga boymiz. O‘zbekiston dunyoda oltin zaxiralari bo‘yicha 2-o‘rinda. Mis, volfram, kumush, uran va boshqa xomashyo boyliklari bor. O‘tgan yili AQSH bilan muhim xomashyo bo‘yicha hukumatlararo anglashuv memorandumi imzoladik.

Beshinchidan, zarur infratuzilma yaratilgan. Sanoat, qishloq xo‘jaligi, farmatsevtika va turizm sohalariga ixtisoslashgan 39 ta erkin iqtisodiy zona tashkil etilgan. Hududlar to‘liq muhandislik va kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlangan hamda unda faoliyat yurituvchi korxonalar 10 yilgacha mol-mulk, yer, suv va daromad soliqlaridan ozod etiladi.

Oltinchidan, transport-logistika salohiyatimiz. O‘zbekiston Sharq va G‘arb, Shimol va Janubni bog‘laydigan asosiy yo‘llar chorrahasida joylashgan. Biz mintaqaviy markaz sifatida muhim tranzit imkoniyatlariga egamiz.

Forumda, shuningdek, O‘zbekiston tomondan Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Kudratov, Senat raisining birinchi o‘rinbosari Sodiq Safoyev hamda soha vazirliklari, idoralari rahbarlari ham ishtirok etdilar.

2024-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston bilan AQSh o‘rtasidagi savdo aylanmasi 15 foizga o‘sib, 881,7 million AQSh dollariga yetdi, AQShdan jalb etilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmi esa 612,6 million dollarni tashkil etdi. Bugungi kunda O‘zbekistonda AQSh kapitali ishtirokidagi 314 ta korxona faoliyat yuritmoqda, ulardan 167 tasi to‘liq AQShga tegishli kompaniyalardir.

Tadbirda ikki davlatning ishbilarmonlar va davlat sektori vakillaridan iborat 150 dan ortiq ishtirokchi qatnashdi. Ular orasida ishlab chiqarish, raqamlashtirish, qishloq xo‘jaligi, energetika, moliya va sog‘liqni saqlash sohalarida faoliyat yurituvchi yetakchi 100 ga yaqin amerika kompaniyalari ham bor edi. Forumda Boeing, Visa, Coca-Cola, Medtronic, John Deere, CNH, Morgan Stanley, NASDAQ, Abbott kabi kompaniyalar rahbarlari, shuningdek AQShdagi investitsiya fondlari, universitetlar, yuridik, muhandislik va texnologiya kompaniyalari vakillari ishtirok etdi.




So‘nggi yillarda O‘zbekiston markazlashgan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonini amalga oshirdi. Investitsiyalarni himoya qiladigan qonunlar, shu jumladan, xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlar joriy etildi. 2017-yilgi harakatlar strategiyasi, 2022-yilgi “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi va hozirgi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi – bularning yorqin misollaridir.

Prezident Shavkat Mirziyoyevni va uning jamoasini tabriklaymiz, ular islohotlar orqali investitsiyalar uchun qulay va ishonchli muhit yaratishga erishdilar. Antikorrupsiyaviy qonunlar qabul qilindi, davlat xizmatchilari malakasi oshirildi, siyosiy va iqtisodiy tizim jahon standartlariga mos ravishda shakllandi.

2024-yilda O‘zbekistonning yalpi ichki mahsuloti (YIM) 6,5% ga o‘sdi. Xususiylashtirish jarayoni tezlashdi, banklar va yirik davlat korxonalari bozor prinsiplari asosida ishlay boshladi. Davlat ishtirokining kamayishi iqtisodiy faollikning kuchayishiga yordam berdi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda amerikalik investorlar uchun keng imkoniyatlar ochilgan. Ko‘plab amerikalik investorlar O‘zbekistonga yangi texnologiyalar, xavfsiz mahsulotlar va global brendlarni olib kelishmoqda, bu esa o‘zaro foydali va barqaror iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi.

AQSh Davlat departamenti ham O‘zbekistonning xorijiy investitsiyalar uchun ochiqligini tan oldi. 2030-yilga kelib, O‘zbekiston o‘rtacha daromadga ega mamlakatlar guruhiga qo‘shilish yo‘lida katta qadam tashlashni rejalashtirmoqda. AUCC bu jarayonni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi.

Forum dasturiga O‘zbekistonning investitsiyaviy salohiyati taqdimoti hamda G2B (hukumat va biznes vakillari o‘rtasidagi) uchrashuvlar kiritildi. Muhokamalar savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish istiqbollari, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish va institutsional hamkorlikni chuqurlashtirish masalalariga bag‘ishlandi.

Forum davomida FLSmidth, New Holland Agriculture, Visa, IDCA, John Deere, Coca-Cola kabi Amerika kompaniyalarining O‘zbekistondagi muvaffaqiyatli faoliyati misol tariqasida alohida ta’kidlab o‘tildi.

**Forumda tomonlar quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda hamkorlikni chuqurlashtirishga yuqori qiziqish bildirayotgani tasdiqlandi:**

- Yashil energetika
- Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati
- Sog‘liqni saqlash va farmatsevtika
- Axborot texnologiyalari va raqamli infratuzilma
- Moliyaviy texnologiyalar
- Ishlab chiqarish va mashinasozlik

2025-yilgi O‘zbekiston-Amerika biznes forumi ikki davlat o‘rtasidagi strategik sheriklikni yanada kengaytirish yo‘lida muhim qadam bo‘lib, O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi ishonchli iqtisodiy va investitsiyaviy hamkor sifatidagi rolini yana bir bor tasdiqladi.

# BIZNES DAILY BIRJA

- **Биржа савдолари натижалари**
- **Биржа бюллетенлари**
- **Котировкалар, листинглар**
- **Танлов ва тендерлар**
- **Қимматли қоғозлар бозори иштирокчиларининг муҳим фактлари**
- **Банкротлик**

#47 (3241) 12.06.2025
WWW.BUSINESSDAILY.UZ


Зангиота туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 4 июндаги 4-1101-2501/7158-сонли иш ҳал қилув қарорига кўра, “B and X grand” МЧЖ тўловга қобилиятсиз деб топилган ва тугатишга доир иш юритиш бошланган. Тугатиш бошқарувчиси этиб Карабаев Отабек Абиджанович тайинланган.

Кредиторларнинг талаблари “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонунда белгиланган тартибда қабул қилинади.

Алоқа учун телефон: (94) 474-71-74.

---

Тошкент шаҳар, Яккасарой тумани, Яккасарой МФЙ, Яккасарой кўчаси 5-уйда рўйхатдан ўтган **“Berejlivost” МЧЖ**га (СТИР 201131915) нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иши қўзғатилган.

Кредиторларнинг биринчи умумий йиғилишида кворум бўлмаганлиги сабабли йиғилиш 2025 йил 20 июнь соат 11.00 да Тошкент шаҳар, Олмазор тумани, Себзор кўчаси, 1-уйда бўлиб ўтади. Мазкур йиғилишга ишончли шахс ишончнома, қарздорликни тасдиқловчи ҳужжат ҳамда паспорт билан келиши шарт. Рўйхатга олиш 10.30да бошланади. Тел: +99833-601-10-26.

---

Ўртачирчиқ туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 4 июндаги 4-1104-2501/1720-сонли иш ҳал қилув қарорига кўра, **“Bo` kamahsussuvpudrat” МЧЖ** тўловга қобилиятсиз деб топилган ва тугатишга доир иш юритиш бошланган. Тугатиш бошқарувчиси этиб Карабаев Отабек Абиджанович тайинланган.

Кредиторларнинг талаблари “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонунда белгиланган тартибда қабул қилинади.

“Bo‘kamahsussuvpudrat” МЧЖ молиявий ҳолатини таҳлил қилиш юзасидан аудиторлик ташкилотларига ҳамда мол-мулкларини баҳолаш юзасидан баҳоловчи ташкилотлар ўртасида тендер эълон қилинади. Таклифлар эълон чиққан санадан эътиборан бир ойлик муддатда қабул қилинади.

Алоқа учун телефон: (94) 474-71-74.

---

Чирчиқ туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 5 июндаги 4-1102-2501/3605-сонли иш ҳал қилув қарорига кўра, **“Chirchiq-Anvarbek farzandlari” МЧЖ** тўловга қобилиятсиз деб топилган ва тугатишга доир иш юритиш бошланган. Тугатиш бошқарувчиси этиб Карабаев Отабек Абиджанович тайинланган.

Кредиторларнинг талаблари “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонунда белгиланган тартибда қабул қилинади.

Алоқа учун телефон: (94) 474-71-74.

---

Жомбой туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 9 июндаги 4-1406-2501/4263-сонли ажримига асосан “Davlatbek Abdurazzoqov zamini” (СТИР 307800755) ФХ, 4-1406-2501/4261-сонли ажримига асосан “Qirqsaydov agro” (СТИР 307255642) ФХ, 4-1406-2501/4262-сонли ажримига асосан “Muzaffar Sindorov zamin dalasi” (СТИР 307818573) ФХ, 4-1406-2501/4264-сонли ажримига асосан “Uralov Nodir dalasi” (СТИР 302797613) фермер хўжалиги ҳамда Пастдарғом туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 10 июндаги 4-1407-2501/3667-сонли ажримига асосан “Quyboqar ishonchi” (СТИР 303528921) ФХ ва 4-1407-2501/3668-сонли ажримига асосан “Nurli ona diyor” (СТИР 204086423) ФХга нисбатан тўловга қобилятсиз(банкрот)лик иши қўзғатилган ва суд муҳокамасига тайёрлаш бўйича кузатув жорий қилинган.

Кузатиш ишларини амалга ошириш учун 3-тоифали суд бошқарувчиси Д.Донакулов муваққат бошқарувчи этиб тайинланган. Мазкур қарздор фермер хўжаликлари кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 14 июль куни соат 11.00 да Самарқанд вилояти солиқ бошқармаси маъмурий биносида бўлиб ўтади. Йиғилишга кредиторлар ва унинг вакиллари шахсини ҳамда қарздорликни тасдиқловчи ҳужжатлар, йиғилиш иштирокчиси ваколатларини тасдиқловчи ишончномалар билан келиши сўралади. Кун тартибига “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонун билан кредиторларнинг биринчи йиғилишига кўриб чиқиш ваколатлари берилган қарорлардан бирини қабул қилиш масаласи киритилган. Ушбу маълумот эълон қилинган пайтдан эътиборан ўттиз кун ичида кредиторлар ўз талабларини қарздорга тақдим этиши сўралади.

Мурожаат учун тел: +99894-476-68-55, +99898-777-68-55.

---

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг ажрими билан қуйидаги корхонага нисбатан тўловга қобилиятсизлик (банкротлик) тўғрисида иш қўзғатилиб, кузатув жорий қилинган ҳамда муваққат бошқарувчи этиб Талипов Мухиддин Нуриддин ўғли тайинланган.

Мазкур қарздор корхона кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 24 июль куни Яккасарой тумани, А.Қаҳҳор 9-тор кўчаси, 1-уйнинг 315-хонасида бўлиб ўтади.

Биринчи кредиторлар йиғилишида “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонуннинг 89-моддасида кўрсатиб ўтилган ҳамда ушбу қонунда назарда тутилган бошқа масалалар кўриб чиқилади.

Кредиторлар томонидан билдирилган талаблар эълон чиққан кундан бошлаб 1 ой давомида Яккасарой тумани, А.Қаҳҳор 9-тор кўчаси, 1-уйнинг 315-хонасида қабул қилинади. Тел: (99) 846-62-02.

| № | СТИР | Корхона номи | Иқтисодий суднинг (ажрими, ҳал қилув қарори)нинг | | Рўйхатга олиш вақти (соат) | Кредиторлар йиғилишининг вақти (соат) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | санаси | Рақами | | |
| 1 | 309210634 | “Davlatov Industries” MCHJ | 05.06.2025 й. | № 4-1001-2517/58901 | 10.30 | 11.00 |

---

Риштон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 5 июндаги 4-1505-2502/5692-сонли ажрими билан Олтиариқ туманида жойлашган “Dubai Ice Cream” OKга (СТИР 309231379) нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг кузатув таомили жорий қилинган ва муваққат бошқарувчи этиб Т.А.Искандаров тайинланган. Мазкур иш юзасидан суд мажлиси 2025 йил 5 август куни Риштон тумани, Б.Рошидоний кўчаси, 187-а уйда жойлашган суд биносида ўтказилади. Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 25 июль куни соат 14.00 да Фарғона шаҳри, С.Аҳмад кўчаси, 48-а уйда ўтказилади.

Марғилон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 30 майдаги 4-1504-2502/8828-сонли ажрими билан Ёзёвон туманида жойлашган “Xin-Fergana” МЧЖ (СТИР 305700518) ҳамда шу суднинг 2025 йил 9 июндаги 4-1504-2502/8861-сонли ажрими билан Тошлоқ туманида жойлашган “Expo Kollor Prin Teks” МЧЖга (СТИР 300486946) нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг кузатув таомили жорий қилинган ва ҳар иккала ташкилотда муваққат бошқарувчи этиб Т.А.Искандаров тайинланган. “Xin-Fergana” МЧЖ иши юзасидан суд мажлиси 2025 йил 9 июль куни соат 14.00 да ва “Expo Kollor Prin Teks” МЧЖ иши юзасидан суд мажлиси 2025 йил 23 июль куни соат 14.30 да Марғилон шаҳри, Нурафшон кўчаси, 7-уйда жойлашган суд биносида ўтказилади. Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 1 июль куни соат 11.00 ва 2025 йил 16 июль куни соат 11.00 да Фарғона шаҳри, С.Аҳмад кўчаси, 48-а уйда ўтказилади. Тел: 93-202-00-66.

---

Қорақалпоғистон Республикаси Кўнғирот туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 9 июндаги 4-2303-2501/243-сонли ҳал қилув қарорига асосан Шуманай туманида рўйхатдан ўтган **“Klaster Bexruz Jahangir” МЧЖ** (СТИР 307080649) банкрот деб топилиб, тугатишга оид иш юритиш жорий қилинди.

Тугатиш бошқарувчиси вазифасига суд бошқарувчиси Рўзметов Янгибой Вафаевич (Аттестат: АА №000209) тайинланди.

Шу муносабат билан талаблар эълон чиққан кундан эътиборан 1 ой муддатда тугатиш бошқарувчиси томонидан қабул қилинади.

Манзил: Хоразм вилояти, Урганч шаҳри, Амударё кўчаси, 9-а уй.

Мурожаат учун тел.: +99899-454-44-52.

---

## “Euroasia life insurance” АЖ акциядорлари диққатига!

**Ҳурматли акциядорлар!**

“Euroasia life insurance” акциядорлик жамияти акциядорларининг 2025 йил 30 июнь куни ўтказилиши белгиланган умумий йиғилиши тўғрисида “Biznes Daily Birja” газетасининг 2025 йил 10 июндаги 46 (3240)-сонида чоп этилган хабарномадаги кун тартиби қўшимча кун тартиби қўшилаётганлиги сабабли, жамият акциядорларининг 2025 йил 30 июнда ўтказиладиган навбатдаги йиллик умумий йиғилиши кун тартибини қуйидаги таҳрирда ўқилишини сўраймиз:

**Йиғилиш кун тартиби:**

1. Саноқ комиссияси аъзолари таркибини тасдиқлаш.
2. Жамият акциядорлари умумий йиғилишининг регламентини тасдиқлаш.
3. Жамият кузатув кенгашининг 2024 йил якунлари бўйича ҳисоботини тасдиқлаш.
4. Жамият фаолиятининг 2024 йил якунлари бўйича йиллик ҳисоботи ҳамда 2024 йил якуни бўйича ташқи аудиторлик ташкилотининг хулосаларини тасдиқлаш.
5. Жамият томонидан 2024 йилда олинган соф фойда/зарарни тақсимлаш.
6. Жамиятнинг 2025 йил молиявий-хўжалик фаолиятини молиявий ҳисоботларнинг миллий ва халқаро стандартлар талабларига мувофиқ ташқи аудит текширувидан ўтказиш бўйича аудиторлик ташкилотини танлаш ва унга тўланадиган ҳақ миқдорини белгилаш.
7. Жамият бош директорини тайинлаш.

“Biznes Daily Birja” газетасининг 2025 йил 10 июндаги 46(3240)-сонида жамият томонидан чоп этилган хабарномадаги бошқа маълумотлар ўзгаришсиз қолганлигини маълум қиламиз.

---

Марғилон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 5 июнь кунги ҳал қилув қарорлари 4-1504-2502/8710-сон билан “Expresss prime” МЧЖ, 4-1504-2502/8711-сон б-н “Markaziy Yozyovon fayz” МЧЖ, 4-1504-2502/8712-сон билан “Sirojiddin Sharobiddin 777” МЧЖ, 4-1504-2502/8713-сон билан “Friendship is over” МЧЖ тўловга қобилиятсиз деб топилиб, соддалаштирилган тартибда тугатишга доир иш юритиш жорий этилган. Суд бошқарувчиси этиб Абдураззоков Абдулазиз Абдурахмонович тайинланди. Кредиторлар йиғилиши 2025 йил 30 июнь куни соат 16.00 да Фарғона шаҳар, Саид Аҳмад кўчаси, 48-а уйда ўтказилади.

**Кун тартиби:** 1. Суд бошқарувчиси ҳисоботи. 2. Кредиторлар талаблари реестри. 3. Суд бошқарувчисининг календарь иш режаси. 4. Вазирлар Маҳкамасининг 14.08.2013 йилдаги 224-сонли қарори асосида сохта банкротлик, банкротликни яшириш ва қасддан банкротликка олиб келиш аломатларини аниқлаш бўйича хулоса муҳокамаси. Қарздорларнинг муҳр, тўрт бурчак штампи, давлат рўйхатидан ўтганлиги тўғрисидаги таъсис ҳужжатларининг асл нусхалари тугатиш бошқарувчисига эълон чиққан кундан бошлаб 10 кунлик муддатда тақдим этилмаган тақдирда, бекор қилинган ҳисобланади. Кредиторлар талаблари эълон чиққан кундан бошлаб фақат биринчи марта тўловга қобилиятсизлиги хақида эълон берилганларлар учун бир ой муддат ичида қабул қилинади. Йиғилишларга кредитор ўзининг шахсини ва ҳақдорлигини тасдиқловчи ҳужжат (солиштирма далолатнома), унинг вакили ваколатини белгиловчи ишончнома билан қатнашиши лозим. Мурожаат учун манзил: Фарғона шаҳри, Мададкор МФЙ, С.Аҳмад кўчаси, 48-а уй. Телефон: (90) 775-80-02.

---

Шовот туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 3 июндаги 4-2202-2501/3068-сонли ажримига асосан Гурлан туманида рўйхатга олинган **“Gurlan avtosalon” MChJra** (СТИР 305735480) нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилган ва кузатув жараёнини олиб бориш учун муваққат бошқарувчи вазифасига суд бошқарувчиси Ишчанов Азамат Худайназарович тайинланган. Кузатув жараёни натижаси бўйича суд мажлиси 2025 йил 18 июль куни соат 11.00 да Шовот туманлараро иқтисодий суди биносида кўриб чиқишга тайинланган. Мазкур қарздор жамият кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 9 июль куни соат 17.00 га белгиланди. Кредиторлар йиғилиши Урганч шаҳри, Ал-Хоразмий кўчаси, 23-уй, Давлат активларини бошқариш агентлигининг Хоразм вилояти ҳудудий бошқармаси биноси (Кенгашлар уйи биноси, 3-қават) да ўтказилади. Кредиторлар вакилларини рўйхатга олиш 2025 йил 9 июль куни соат 16.45 да бошланади.

Вакил тегишли ишончнома, шахсини тасдиқловчи ва талабини тасдиқловчи ҳужжатлар билан келиши лозим.

**Кредиторлар йиғилиши кун тартиби:**

1. Муваққат бошқарувчининг кузатув жараёни натижалари бўйича ҳисоботини тасдиқлаш.
2. “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонуннинг 26-моддасига асосан суд бошқарувчисига тўланадиган ҳақни белгилаб тасдиқлаш, тўлов манбаини аниқлаб тасдиқлаш ҳамда кредиторлар талаблари реестрини тузиш.
3. Даъвогар-кредиторнинг талаблари қоплаб берилмаса ёки келишув битими тузишга эришилмаса қарздорларга нисбатан тўловга қобилиятсизлик таомилларидан бирини қўллаш.
4. Тугатиш жорий қилинадиган бўлса, суд (тугатиш) бошқарувчиси номзодини тасдиқлаш ва унга иш ҳақи миқдорини белгилаб тасдиқлаш.

Мурожаат учун суд бошқарувчиси А.Ишчанов тел. рақами: +99891-435-39-37.

---

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 4 июньдаги 4-1001-2524/51978-сонли ажрими билан “Hydrocarbons trade” МЧЖга (СТИР 306100654) нисбатан тўловга қобилиятсизликка доир иш қўзғатилиб, кузатув жорий этилган.

Кузатув ишларини амалга ошириш учун 3-тоифали суд бошқарувчиси Хушмирзаев Акрамжон Бахромжонович муваққат бошқарувчи этиб тайинланган.

“Hydrocarbons trade” МЧЖ кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 14 июль куни соат 10.00 да Тошкент шаҳар, Миробод тумани, Фидокор кўчаси, 42-уйда бўлиб ўтади.

Мурожаат учун телефон: +99891-600-24-46.

**Кун тартибида қуйидаги масалалар кўрилади:**

1. Тошкент туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 4 июндаги 4-1001-2524/51978-сонли ажрими билан таништириш.
2. Кредиторлар реестрини тузиш ва тасдиқлаш масаласи.
3. Суд санациясини ёки ташқи бошқарувни жорий этиш ҳақида илтимоснома билан Тошкент туманлараро иқтисодий судига мурожаат қилиш.
4. Қарздорни тўловга қобилиятсиз деб топиш ва тугатишга доир иш юритишни бошлаш ҳақида илтимоснома билан Тошкент туманлараро иқтисодий судига мурожаат қилиш.
5. Кредиторлар қўмитасининг миқдорий таркиби, унинг аъзоларини сайлаш.
6. Санация қилувчи бошқарувчининг, ташқи бошқарувчининг ёки тугатиш бошқарувчисининг номзодларини маъқуллаш.
7. Муваққат бошқарувчининг иш ҳақини белгилаш ва тасдиқлаш масаласи.

Қарздорга нисбатан талаб билдираётган барча корхона, ташкилотлар ва бошқа субъектлар вакиллари қарздорликни тасдиқловчи таққослама далолатнома билан, овоз бериш учун ваколатнома асосида кредиторлар йиғилишида қатнашишлари сўралади.

Кредиторлар ҳамда вакиллар йиғилишда қатнашиш ва овоз бериш учун ваколатномаларни муваққат бошқарувчига тақдим қилиши шарт.

Кредиторлар йиғилишида кўриб чиқиладиган масалалар билан йиғилиш давомида таништириб борилади. Кредиторлар йиғилиши иштирокчиларини рўйхатга олиш йиғилиш бошланишидан 30 дақиқа олдин бошлаб, 5 дақиқа қолганида тўхтатилади.

Тақдим этилган ваколатномада ваколатли вакилнинг фамилияси, исми, отасининг исми, паспорт маълумотномаси, лавозими, ваколатноманинг ваколат муддати ва муҳр бўлиши лозим.

# "Invest Finance Bank" aksiyadorlik jamiyatining акциялар чиқарилиши давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисида хабар!

**"Invest Finance Bank" AJ жамиятнинг ўн олтинчи акциялар чиқарилиши Ўзбекистон Республикаси Истиқболли лойиҳалар миллий агентлиги томонидан давлат рўйхатига олинганлиги тўғрисида хабар қилади.**

Акциялар чиқарилиши давлат рўйхатидан ўтказилган санаси ва рақами – 2025 йил 11 июнь, №P0820-16.

Идиентификация рақами (оддий акциялар) – RU116P0820R4.

Идиентификация рақами (имтиёзли акциялар) – RU216P0820R2.

Акциялар чиқариш тўғрисидаги қарор ва рисола билан танишиб чиқиш жойи ва тартиби – жамият эмиссия рисоласининг ва қимматли қоғозлар чиқарилиши тўғрисидаги қарорининг асли ва нусхаси билан Тошкент шаҳар, Т.Шевченко кўчаси, 1-уй манзили бўйича жойлашган "InFinBank" АЖ бош офисида, нусхалари билан эса банкнинг барча филиалларида ҳамда банкнинг веб-сайтида танишиш мумкин.

**"Invest Finance Bank" aksiyadorlik jamiyati Эмиссия рисоласи**

**1. Жамият тўғрисидаги асосий маълумотлар**

- Жамиятнинг тўлиқ ва қисқартирилган номи:
- Жамиятнинг тўлиқ номи – "Invest Finance Bank" aksiyadorlik jamiyati.

1.2 Жамиятнинг қисқартирилган номи – "InFinBank" AJ.

1.3 Жамият рўйхатдан ўтказилган сана ва рўйхат рақами – 2007 йил 24 декабрда, №75-сон билан.

1.4 Жамиятнинг Банк реквизитлари – "InfinBank" АЖ Бош офиси, Ҳисоб рақами: 2983 0000 8000 0104 1022, МФО: 01041.

1.5 Жамият раҳбарининг фамилияси, исми, шарифи – Нуманова Ольга Леонидовна.

1.6 Жамият бош бухгалтерининг фамилияси, исми, шарифи – Аллаёрова Дилрабо Нормаматовна.

1.7 Жамиятнинг ташкилий-ҳуқуқий шакли – акциядорлик жамияти.

1.8 Жойлашган жойи – Ўзбекистон Республикаси, 100029, Тошкент шаҳри, Миробод тумани, Т.Шевченко кўчаси, 1-уй.

1.9 Жамият солиқ органининг номи ва СТИР – Тошкент шаҳар давлат солиқ инспекцияси, СТИР: 206 942 764.

Давлат статистика органи томонидан берилган кодлар:

Корхонанинг хос рақами (ОКПО) – 22220067;

ХХТУТ бўйича асосий фаолият тури (ОКЭД) – 64190;

МШТ бўйича мулкчилик шакли (ОПФ) – 153;

Манзили бўйича МХОБТ тўлиқ хос рақами (СОАТО) – 1726277;

ТХШ бўйича ташкилий – ҳуқуқий шакли (ОПФ) – 153.

1.10 Асосий фаолият йўналиши ва ишлаб чиқариш (хизмат) турлари – банк хизматлари.

1.11 Жамиятда мустақил рейтинг баҳосининг мавжудлиги. Уларнинг қисқача тавсифи: "Moody's Investors Service Limited" рейтинг агентлиги томонидан қуйидаги йиллар оралиғида ҳар йили тақдим этилган рейтинглар:

- 2011 йилдан 2018 йилгача – "B3";
- 2018 йилдан 2023 йилгача – "B2";
- 2024 йилда – "B1".

**2. Чиқарилаётган акциялар чиқарилишини муомалага киритиш шартлари**

2.1 Келгуси акциялар чиқарилишини муомалага киритиш шартлари:

а) чиқарилишдаги акциялар тури – эгасининг номи ёзилган оддий ва имтиёзли акциялар.

б) чиқарилишдаги акциялар сони – 240 000 000 (икки юз қирқ миллион) дона эгасининг номи ёзилган оддий акциялар ва 300 000 000 (уч юз миллион) дона эгасининг номи ёзилган имтиёзли акциялар.

в) чиқарилишдаги акцияларнинг номинал қиймати, сўм – 1 000 (бир минг) сўм;

г) чиқарилишнинг умумий ҳажми (номинал қиймати бўйича), сўм– 540 000 000 000 (беш юз қирқ миллиард) сўм.

д) чиқарилишдаги ҳар бир акция билан тақдим этиладиган ҳуқуқлар – жамиятнинг оддий акциялари эгаси қуйидаги ҳуқуқларга эга:

- Жамиятнинг акциядорлари реестрига киритилиш;
- ўзига тааллуқли депо ҳисобварағидан кўчирма олиш;
- Жамият фойдасининг бир қисмини дивидендлар тарзида олиш;
- Жамият тугатилган тақдирда ўзларига тегишли улушга мувофиқ мол-мулкнинг бир қисмини олиш;
- акциядорларнинг умумий йиғилишларида овоз бериш орқали жамиятни бошқаришда иштирок этиш;
- Жамият молия – хўжалик фаолияти натижалари тўғрисида тўлиқ ва ишончли ахборотни белгиланган тартибда олиш;
- олган дивидендини эркин тасарруф этиш;
- қимматли қоғозлар бозорини тартибга солиш бўйича ваколатли давлат органида, шунингдек судда ўз ҳуқуқларини ҳимоя қилиш;
- ўзига етказилган зарарнинг ўрни қопланишини белгиланган тартибда талаб қилиш;
- ўз манфаатларини ифодалаш ва ҳимоя қилиш мақсадида уюшмалар ва бошқа нодавлат нотижорат ташкилотларига бирлашиш;
- қимматли қоғозларни олишда зарар кўриш, шу жумладан бой берилган фойда эҳтимоли билан боғлиқ таваккалчиликларни суғурта қилиш;
- Жамиятнинг акциядорлари ўзга акциядорларнинг розилигисиз ўзига тегишли акцияларни учинчи шахсларга бегоналаштириш билан боғлиқ битимларни амалга ошириш ҳуқуқига эга;
- Жамиятнинг акциядорлари жамият акциялари берадиган ҳуқуқларни (ҳуқуқларнинг бир қисмини) қонунчиликда белгиланган тартибда ишончнома асосида ўз вакилига (вакилларига) бериш ҳуқуқига эга;
- Акциядорлар жамият уставида ва қонунчиликда назарда тутилган бошқа ҳуқуқларга ҳам эга бўладилар.

**Банкнинг имтиёзли акциялари эгаси қўйидаги ҳуқуқларга эга:**

- Банк Уставида белгиланган миқдордаги дивидендни биринчи навбатда олиш;
- Банк тугатилган тақдирда имтиёзли акциялар тугатиш қийматини олиш;
- Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида ва банк уставида кўзда тутилган ҳолатларда овоз бериш ҳуқуқи билан акциядорлар умумий йиғилишида иштирок этиш;
- Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги ва банк устави билан белгиланган бошқа ҳуқуқлар.

е) акцияни жойлаштириш усули, шунингдек, ёпиқ обуна бўлган тақдирда ушбу чиқарилишдаги қимматли қоғозлар жойлаштирилиши амалга ошириладиган шахслар доираси кўрсатилади – ушбу чиқарилишдаги акциялар акциядорларга имтиёзли сотиб олиш ҳуқуқи тақдим қилган ҳолда очиқ обуна орқали жойлаштирилади.

ж) акцияни жойлаштиришнинг муддати ва тартиби – чиқарилаётган акциялар ваколатли давлат органи томонидан давлат рўйхатига олинган кундан бошлаб 365 (уч юз олтмиш беш) кун муддатда жойлаштирилади.

Акцияларни жойлаштиришни бошлаш санаси – акциялар чиқарилуви давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги хабар ва имтиёзли ҳуқуқнинг амал қилиш муддати билдиришномаси қонун ҳужжатларида ўрнатилган тартиб ва муддатларда оммавий ахборот воситаларида эълон қилинган кундан эътиборан 15 (ўн бешинчи) кун. Агар акцияларни жойлаштиришни бошлаш санаси дам олиш кунига тўғри келса, унда акцияларни жойлаштириш кейинги биринчи иш кунида бошланади.

Акцияларни жойлаштиришни тугатиш санаси – мазкур чиқарилишнинг сўнгги акцияси жойлаштирилган кун. Бироқ акцияларни жойлаштиришни тугатиш санаси, мазкур чиқарилиш ваколатли давлат органи томонидан давлат рўйхатига олинган кундан бошлаб 365 кундан ошмаслиги лозим.

Акцияларни жойлаштиришнинг тартиби – қўшимча чиқарилаётган акциялар банк томонидан мустақил равишда андеррайтерлар жалб қилинмасдан жойлаштирилади. Қўшимча чиқарилаётган акцияларни сотиб олишда "Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида"ги қонуннинг 35-36-моддаларига асосан банк акциядорларига имтиёзли сотиб олиш ҳуқуқи тақдим этилади. Акцияларни имтиёзли сотиб олиш ҳуқуқи, имтиёзли ҳуқуқ тўғрисидаги билдиришнома оммавий ахборот воситаларида эълон қилинган пайтдан бошлаб 14 (ўн тўрт) кун давомида амал қилади. Акциялар имтиёзли сотиб олиш ҳуқуқи орқали жойлаштирилганда акциядорлар билан ташкиллаштирилмаган (уюшмаган) қимматли қоғозлар бозорида тўғридан-тўғри фуқаролик-ҳуқуқий битим тузиш йўли билан жойлаштирилади ва хизмат кўрсатувчи инвестиция воситачиси томонидан рўйхатга олинади.

Акцияларни имтиёзли сотиб олиш ҳуқуқининг амал қилиш муддати тугаганидан сўнг, жойлаштирилмаган акциялар очиқ обуна орқали чекланмаган инвесторлар орасида "Тошкент" Республика фонд биржаси (Тошкент РФБ) савдо майдончаларида (листинг) жойлаштирилади. Тошкент РФБда акцияларни жойлаштириш бўйича битимлар, ушбу биржанинг савдо қоидаларига мувофиқ амалга оширилади.

з) ушбу чиқарилишдаги акциялар баҳоси (баҳолари) ёки жойлаштириш баҳосини белгилаш тартиби – ушбу чиқарилишдаги акциялар инвесторларга, шунингдек имтиёзли ҳуқуқга эга шахсларга ҳам, жамият кузатув кенгаши қарори билан белгиланадиган бозор баҳосида, лекин номинал нархидан паст бўлмаган нархда жойлаштирилади.

и) акцияларни тўлаш шартлари ва тартиби, шу жумладан ҳисоб-китобларнинг шакли, акциялар тўланишига келиб тушадиган пул воситалари кўчирилиши лозим бўлган банк ҳисобварақлари – акциялар учун тўловлар Ўзбекистон Республикасининг миллий валютасида амалга оширилади. Акцияларни жойлаштириш жараёнида акциялар учун тўловлар фақат пул маблағлари билан амалга оширилади.

Акцияларни жойлаштириш жараёнида акциялар учун тўловлар нақд ва/ёки нақдсиз шаклда, Тошкент шаҳри, Миробод тумани, Т. Шевченко кўчаси, 1-уй манзили бўйича жойлашган "Invest Finance Bank" акциядорлик жамияти (қисқа номи – "InFinBank" АЖ) Бош офисидаги 2983 0000 8000 0104 1022 ҳисоб рақамларига қабул қилинади.

Банк коди: 01041.

Банк акциялари учун тўловлар акцияларни жойлаштириш муддати ичида амалга оширилиши керак.

"Тошкент" РФБ орқали амалга ошириладиган олди – сотди битимлари бўйича ҳисоб – китоб қилиш тартиби ва муддатлари ушбу биржанинг савдо қоидаларига мувофиқ амалга оширилади. Тўловлар нақдсиз шаклида, ўратилган тартибда лицензияга эга инвестиция воситалари орқали "Тошкент" РФБ махсус депозит рақамига пул ўтказиш йўли билан амалга оширилади.

к) акциялар чиқарилиши тўғрисидаги қарорни қабул қилган жамият органи ва санаси – "InFinBank" AJ кузатув кенгашининг 2025 йил 8 майдаги қарори асосида.

л) жамият уставида акциялар эмиссиясига ўрнатилган ҳар қандай чеклашлар, жойлаштирилаётган акцияларни сотиб олиши мумкин бўлганларга нисбатан чеклашлар: банк уставига ва акциялар чиқарилиши тўғрисидаги қарорга кўра банкнинг овоз берувчи акциялари эгаси бўлмиш акциядорлар чиқарилаётган акцияларни ўзлари эга бўлган овоз берувчи акциялар сонига мутаносиб миқдорда имтиёзли сотиб олишга ҳақлидирлар.

